







Nogironligi bor insonlarning sanatoriyalarda davolanishi



Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen nogironligi bor insonlarning **sanatoriyalarda davolanish** tartibi haqida bilib olasan.
	Prezidentining 82-sonli farmoniga ko‘ra nogironligi bor insonlarning davolanishi uchun sanatoriyalarga yo‘llanma berish “**Inson Ijtimoiy himoya milliy agentligi”**ga o‘tkazildi.
	O‘zbekistonning 10 ta viloyatida **11 ta sanatoriyalar** bor.



	Sanatoriyalarda: ● nogironligi bor insonlar ● qariyalarga qulaylik yaratish uchun zinalarda panduslar va liftlar bor.
	Ko‘zi ojiz insonlar uchun xonalardagi ma’lumotlar bo‘rtma yozuvlar bilan yozilgan.
	Inson Ijtimoiy markazi beradigan sanatoriya yo‘llanmalari ishchilarga kasaba uyushmasi beradigan Sanatoriya yo‘llanmasidan farq qiladi.
	Kasaba uyushmasi – bu ishchilar huquqlarini himoya qiladigan tashkilot.
	**Sanatoriyaga yo‘llanma olish uchun sen:** ● Davlat xizmatlari markazlariga ● “Inson” markazlariga **borib murojaat qilishing kerak.**


	“Inson” ijtimoiy markazlari sening ma’lumotlaringni o‘rganadi va navbatga qo‘yadi.
	Yo‘llanmalar soni sanatoriyadagi joylar va Davlat ajratadigan pulga qarab belgilanadi.
	**Sanatoriyaga yo‘llanma beriladigan insonlar:** • urushda nogiron bo‘lganlar • urushda qatnashganlar • vafot etgan harbiylarning nikohdan o‘tmagan xotini yoki eri • davlat darajasidagi pensiya oluvchilar • Chernobil AESda nogiron bo‘lganlar • yadro poligonlarida harbiy xizmat qilganlar • birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bor insonlar • birinchi guruh ko‘zi ojiz insonlarning hamrohlari • o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz qariyalar • qariyalar pensiyasini oluvchilar.



	Senga sanatoriyda davolanish uchun yo‘llanma **2 yilda bir marta** navbat bilan beriladi.
	**Masalan:** ● Senda ikkinchi guruh nogironligi bor. ● Sen yaqinda sanatoriyada davolanib kelding. ● Keyingi yo‘llanmaga navbat qo‘yish uchun sen **bir yildan keyin** “Inson” markazlariga murojaat qilishing mumkin.
	Navbatlar **“Yagona ijtimoiy himoya”** internet tizimi orqali boshqariladi.
	Qariyalar, nogironligi bor insonlar yoki ularning vakillari ● my.gov.uz internet tizimi orqali ● Yagona Milliy Ijtimoiy Himoya internet tizimi orqali ham **sanatoriya yo‘llanmasi uchun ariza berishi mumkin.**


	S**anatoriyaga yo‘llanma berish va navbatga qo‘yish bepul.**
	Sen sanatoriya yo‘llanmasi uchun navbatingni: ● Davlat xizmatlari markazi ● Inson markaziga **borib bilishing mumkin.**
	Sen sanatoriya yo‘llanmasi uchun navbatingni: ● my.gov.uz internet tizimi orqali ● Yagona Milliy Ijtimoiy Himoya **internet tizimi orqali ham ko‘rishing mumkin.**
	Hozir senga internet orqali sanatoriyadagi navbatingni ko‘rishni o‘rgataman.
	1. Internetga **my.gov.uz** yozib kirasan va **“ijtimoiy himoya”** bo‘limini tanlaysan.



	
	2. Ijtimoiy himoya bo‘limiga kirgandan keyin **“keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga sanatoriylarda davolanish uchun yo‘llanma berish”** bo‘limini tanlaysan.
	

	3. Keyin **“xizmatdan foydalanish”** tugmasini bosasan.
	
	4. Bo‘lim ochilgach: ● o‘zing haqingdagi ma’lumotlar ● telefon raqamingni kiritasan.
	O‘zing xohlagan yoki yaqinroq sanatoriyani tanlaysan.

<table>
<tr>
<td>
</td>
<td>Masalan:
● Sen Farg‘onada yashaysan.
● Senga yaqin bo‘lgani uchun Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanidagi sanatoriyani tanlashing mumkin.</td>
</tr>
<tr>
<td></td>
<td>
</td>
</tr>
<tr>
<td></td>
<td>5. Sen sanatoriya yo‘llanmasiga navbatingni internet orqali ko‘rish uchun:
● “keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga sanatoriylarda davolanish uchun yo‘llanma berish” bo‘limining eng pastidagi
● “avval berilgan navbatni tekshirish uchun havolaga o‘ting” tugmasini bosasan.</td>
</tr>
</table>

	
	**6. “avval berilgan navbatni tekshirish uchun havolaga o‘ting”** bo‘limi ochilganidan keyin: • pasportingni **14 talik (JSHSHIR) raqamini** kiritasan va navbatingni ko‘rasan.
	
	Birinchi bo‘lib sanatoriya yo‘llanmalari **urush nogironlari va qatnashchilariga** beriladi.

	Sanatoriyaga yo‘llanmalar qariyalar va nogironligi bor insonlarga **12 kun** davolanish uchun beriladi.
	Yo‘llanma davolanish kuni boshlanishidan 10 kun oldin beriladi.
	Davolanish kuni boshlanishidan **20 kun oldin** qariyalar va nogironligi bor insonlarga **sanatoriyaga navbati kelgani haqida:** ● SMS xabar orqali ● Yoki Inson markazi ishchilari orqali **xabar beriladi.**
	**Masalan:** ● Sanatoriya yo‘llanmasi 12-maydan 24-maygacha davolanish uchun berildi. . ● Senga yo‘llanma berish haqida 2-may kuni sms xabar yuboriladi.

	Sanatoriya yo‘llanmasidan faqat bitta inson ya’ni yo‘llanmada ismi yozilgan inson foydalanishi mumkin.
	Lekin birinchi guruh ko‘zi ojiz insonga bitta yordamchi inson sanatoriyada hamrohlik qilishiga ruxsat beriladi.
	Sen yo‘llanmadan faqat ko‘rsatilgan vaqtda foydalanishing mumkin.
	Seni yo‘llanmada ko‘rsatilgan vaqtdan oldin ham keyin ham sanatoriyga qabul qilishmaydi.
	**Sanatoriyada** qariyalar va nogironligi bor insonlarga ko‘rsatiladigan **xizmat sifatiga** sanatoriya **rahbari** javob beradi.

	**Sanatoriyalarni:** ● Adliya vazirlig ● Adliya vazirligining hududiy boshqarmalari ● Tuman (shahar) adliya bo‘limlari ● Reglament talablarini bajarishda davlat nazorat tashkiloti ● YIDXP ● va boshqa tashkilotlar **nazorat qiladi.**
	YIDXP – bu Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ya’ni my.gov.uz.
	**Sanatoriyalarda qonun buzilayotganini sezsang:** ● Adliya vazirligi ● Adliya vazirligining hududiy boshqarmalari ● Tuman (shahar) adliya bo‘limlari ● Vaqt talablarini bajarishda davlat nazorat tashkilotlariga **og‘zaki va yozma shikoyat qilishing mumkin.**
	**Adliya vazirligi qisqa raqami:** 1008 **Ijtimoiy himoya agentligi raqami:** (0371) 239-59-22 **Ijtimoiy himoya agentligi qisqa raqami:**1140